

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI



TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"AL-SHARH AL-MAN"

M. Sirojiddinov

2018 yil "25" 08



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2018 yil "

Ro'yxatga olindi: № 5120900-3.03

2018 yil "18" 08

TARJIMA TANQIDI
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120 000 Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120900 O'zbek -ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "25" 08 dagi 744-sonli buyrug'ining 6 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil "18" 08 dagi 4 sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.


Tuzuvchilar:

- Sh.S.Sirojiddinov - ToshDO'TAU, filologiya fanlari doktori, professor.
- G.K.Odilova - ToshDO'TAU, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

- S. Sotiboldiyeva - ToshDO'TAU "Sharq tillari" kafedrasini Mudiri.
- Z. Teshaboyeva - O'ADJFU, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "05" 07 dagi "13" - sonli bayonnomasi).



I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"Tarjima tanqidi" fanining o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF 4797-son Farmonida keltirilgan tarjima muammosi bilan bog'liq vazifalar asosida tuzilgan bo'lib, unda asosan ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o'zbek tilidan ingliz va boshqa xorijiy tillarga, shuningdek, jahon tillaridan ona tilimizga yuksak sifat va mahorat bilan tarjima qiladigan tarjimonlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berilgan.

O'rganilayotgan til vositasida tarjimaning nazariy muammolari va ularning amaliy yechimi borasida olingan bilimlarni mustahkamlash, tarjima matnlariga qiyosiy baho berish va ob'yektiv tanqid qila olish mahoratini shakllantirishga qaratilgan. Obyektiv tanqid tamoyillari, qiyosiy chog'ishtirma usul asosida tarjimashunoslikka oid tahlillarni amalga oshirish mazkur fan doirasida o'rganiladi. Ushbu bosqichda avvalgi o'quv yillarida egallangan malaka va mahorat takomillashtiriladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mazkur fan borasida umumiy nazariy tushunchalar berish. Til sohasida to'plangan nazariy bilim asosida tarjima tanqidi ko'nikmasini shakllantirish vazifasini bajaradi. Tarjimonlik sohasiga qobiliyati bor yoshlarda dastlabki fundamental tushunchalarni hosil qilish.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

- turli tarjimalarni tahlil qilish va tarjimonlarning ishiga ob'yektiv baho berish;

- tarjima tanqidiga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi.
- Nasriy va she'riy matnlarni tarjima qilish haqida to'liq tushunchaga ega bo'lib, ko'nikma hosil qila olish;
- Nasr va nazm o'rtasidagi farqlarni tushuna olish va poetik tildagi hamda hikoyachilikdagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil eta olish;
- o'tilgan mavzu bo'yicha o'z fikrini erkin, og'zaki va yozma bayon qila olish malakasiga ega bo'lishi lozim

III. Asosiy qism. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1-mavzu. Tarjima tanqidi va uning o'zbek tarjimachiligi tarixidagi roli

Tarjima tanqidi va uning o'zbek tarjimachiligi tarixidagi roli asar tarjimalari orqali tanqidiy tahlil qilinadi.

2-mavzu. Tarjima tanqidi qonuniyatlari

Har bir tarjima turning o'ziga xos qonun qoidalari mavjudligi sir emas. Xususan, tarjima tanqidining ham boshqa sohalardan ajratib turadigan qonuniyatlari mavjud. Ushbu qonuniyatlar va asarlar tarjimasining qay darajada yuksak yaratilganligini baholovchi omil ekanligi haqida so'z yuritiladi.

3-mavzu. O'zbekiston Adabiyoti san'ati gazetasidagi tarjima tanqidiga oid maqolalar tahlili

O'zbekiston Adabiyoti san'ati gazetasidagi tarjima tanqidiga oid maqolalar tahlili o'rganib chiqiladi va ularga holis baho berilib qo'shimcha xulosalar chiqariladi.

4-mavzu. Tanqid stilistikasi

Yozuvchi va shoirlarning ijod mahsullarini tarjimonlar tomonidan o'g'irilingan varianlari bilan solishtirib stilistik tanqid qilish.

5-mavzu. She'riy tarjima tanqidi

Nasriy tarjima bilan shug'illanuvshi tarjimonlarning tarjima ishlari va asliyatlarni solishtirgan holda she'riy tarjima tanqidi va tahlilini amalga oshirish.

6-mavzu. "Sharq yulduzi" va "Jahon adabiyoti" jurnallaridagi tarjima tanqidiga oid maqolalarda tanqidchi pozitsiyasi tahlili

Tanqidiy maqolalarni tahlil qila olish va ularga munosib baho berish, tanqidchi pozitsiyasini o'rganib xulosalar berish.

7-mavzu. Tarjima tanqidiga oid maqola yozish bo'yicha master-klass

Tarjima tanqidiga oid maqola yozish bo'yicha master-klass soati o'tib berish va mashqlar bajarish.

8-mavzu. Tarjima tanqidiga oid maqola yozish bo'yicha master-klass

Tarjima tanqidiga oid maqola yozish bo'yicha master-klass soati o'tib berish va mashqlar bajarish

9-mavzu. Tarjimada badiiy tanqidning o'rni

Bu asar yozuvchining boshqa hikoyalarda kuzatilgani kabi samimiy jonli va rostgo'y tilda yozilgan bo'lib tarjimasida ham bu keskinlik saqlab qolingani tanqidiy tahlil qilinadi.

10-mavzu. Xolid Husayniy "Tog'lar ham sado berdi" asarining ingliz tilidan Munira Norova tarjimasini qiyosiy tahlili

Amerikalik afg'on adibi Xolid Husayniy ushbu asarida Afg'onistondagi urush hayotini barbad qilib yuborgan insonlar taqdiriga murojaat qiladi. Asarning tarjimasida tarjimon uslubi va obrazlarning tasvirini tanqidiy o'rganib baholash.

11-mavzu. Vilki Kollinzning “Oq kiyingan ayol” asari tanqidiy tahlili

Ingliz yozuvchisi Vilki Kollinzning “The Woman in White” (“Oq kiyingan ayol”) asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita Abduqahhor Iminov tarjima qilgan. Mazkur asar o‘nga yaqin personajning maktub yoki esdalik tarzida kundalik daftarga bitgan bayonotlaridan iborat. Asar tarjimon tomonidan qanday o‘girilganligini stilistik va tanqidiy tahlil qilish.

12-mavzu. A‘zam Obidovning so‘z tanlash mahorati

Yozuvchi Erkin A‘zamning “Shovqin” romanini bevosita til orqali taniqli tarjimon A‘zam Obidov ingliz tiliga tarjima qilgan. Bunda yozuvchi uslubi va tarjimonning so‘z tanlovini o‘rganish va uni tanqidiy va leksik tahlil qila olish.

13-mavzu. Oybek "Navoiy" romani tarjimasida tarjimon mahoratini baholay olish va tanqidiy tahlil qilish

Yozuvchi Oybekning “Navoiy” romani Ilhom To‘xtasinov va Omon Mo‘minovlar tomonidan bevosita o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Ushbu romanning inglizcha matniga amerikalik Kristin Smart muharrirlik qilgan. Oybek "Navoiy" romani

14-mavzu. “Boburnoma” asaridagi frazemalarning tarjimasida adekvatlik

“Boburnoma” asari Ziyoda Teshaboyeva tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima asar boshqa tarjimalardan deyarli ko‘p farq qilmaydi, ammo frazalar o‘ziga xos tarzda tarjima qilinganligi tahlil qilinadi.

15-mavzu. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” tarjimasining tanqidiy tahlili

I. Hasanov tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima asarda deyarli barcha tarjima usulidan foydalanilgan. Tarjimonning badiiy qayta yaratish mahorati asarda aks etib turadi.

16-mavzu. . “Sohibqiron Amir Temur” asari tarjimasining qiyosiy tahlili

“Sohibqiron Amir Temur” asarini Ingliz olimi I. Yansley tomonidan vositachi til rus tili orqali ingliz tiliga tarjima qilingan. Ushbu asarni qiyosiy tahlil qilish.

17-mavzu. Jeyn Ostinning "Andisha va g‘urur" asarida vositachi tilning ta‘siri

“Andisha va g‘urur” Muhabbat Ismoilovatomonidan rus tilidan qilingan tarjima o‘z ma‘noda bir qancha yutuq va kamchiliklarga ega. tarjimada ba‘zi o‘rinlarda chalkashliklar uchrasa ham, asarning g‘oyasi kitobxonga yetkazib berilgan degan mulohazalarni o‘rganib tanqidiy baho berish.

18-mavzu. G‘afur G‘ulom "Shum bola" asari tarjimasini tahlil

O. Mo‘minov va I. Yo‘ldoshev hamkorligida G‘ofur G‘ulomning ushbu qissasi bevosita Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" asarining syujet ma‘nosi bilan moslashgan holda bir tarjimonlar O. Mo‘minov va I. Yo‘ldoshevlar hamkorligida ongliz tiliga tarjima qilingan. Asarning o‘ziga xos quvnoq va zavq beruvchi syujetga egaligi ham o‘z navbatida o‘zga tilda ham yetkazib berilgan.

19-mavzu. Mark Tven “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” asarida pragmatik ta‘sirchanlikning saqlab qolinishi

Mark Tven qalamiga mansub “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” sarguzash romani Ilyos Muslim tomonidan tarjima qilingan. Xuddi “Shum bola” qissasi kabi asarning mazmundorlik ko‘lami pragmatik usulda ko‘proq ochib berilganligi tahlil qilinadi.

20 -mavzu. A. Navoiy "Lison ut-tayr" asari tarjimasiga tanqidiy yondashuv

Ingliz tiliga Ye Fittjerald tarjimasini. Turkiy tilda yozilgan ushbu asarni ingliz tiliga tarjima qilish albatta mushkul. Chunki yashirin ma'no obrazlarning jonivorlar, ya'nikim dostonida qushlar timsoliga ko'chirilgan holda. Ayon etilganligi tarjimonga ham qaysidir ma'noda hayvonot dunyosiga ham murojaat etishga undagan.

21-mavzu. Pearls from ocean” “U mmondan durlar” Alisher Navoiy g'azallaridan tarjimalarini solishtirma tahlili

Mahoratli tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan g'azallar to'plamini asliyat bilan solishtirma tahlil qilish.

22—mavzu. Hafiza Allanazarova tarjimalarida obrazlar adekvatligi

Hafiza Allanazarovanning tarjima ishlarini yaqindan o'rganib chiqish va ularning har biriga qiyosiy xulosalar berish.

23-mavzu. Erkin Vohidov she'riyati

Tarjimonlar tomonidan she'riy tarjimalar mahorat bilan tarjima qilganliklari tahlil qilingan va she'rlarning tarjima variantlari “scene of Morning” nomi ostida chop ettirilgan.

24-mavzu. Begoyim Xolbekova tarjimalar tahlili

Shoira va tarjimonlik faoliyatini o'z ijod mahsullari orqali namoyish etgan. Begoyim Xolbekovanning tarjimalarini tahlil qilish.

25-mavzu. Mo Yanning “Musallas mamlakati” asari tarjimasini tahlili

Amir Fayzulla Sevara Aljonova hamkorligida yaratilgan Mo Yanning “Musallas mamlakati” asari tarjimasini leksik-semantik tahlil qilish.

26-mavzu. German Gesse “Cho'l bo'risi” asari tarjimasini tahlili

Ushbu asarning pragmatic ta'sirchanligi qay darajada saqlanib qolganligini o'rganib chiqish baha tanqidiy baho berish.

27-mavzu. O Genre “So'nggi yaproq” hikoyasi tarjimasini tanqidiy tahlili

Bir necha o'zbek tarjimonlari tomonidan tarjima qilingan ushbu asarning tarjima variantlarini tanqidiy tahlil qilish.

28-mavzu. Gulnoza Odilovanning “Ko'ngil kengliklari” ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga tarjimalari tahlili

G. Odilovanning “Ko'ngil kengliklari” ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga kiritilgan tarjimalarni qiyosiy tahlil qilish.

29-mavzu. Tohir Malikning “Alvido Bolalik” qissasi tarjimasida muallif uslubining saqlanishi

Mahmuda Saidumarova tomonidan qilingan ushbu asarning tarjimasini o'rganib chiqish.

30-mavzu. Said Ahmad asarlari tarjimalarining tahlili

Tarjimonlar tomonidan qilingan Said Ahmad asarlarini pragmatik va tanqidiy tahlil qilish.

31-mavzu. Paulo Koeloning “Alkimyogar” asari tarjima variantlarini o'rganish

O.Sharofiddinov A. Otaboyev va A. Saidlar tomonidan qilingan tarjimalarni o'rganish va ularni tahlil qilish.

32-mavzu. Robert Byorns she'riyatining o'zbek tilidagi tarannumi.

R. Byorns she'rlarini o'zbek tiliga tarjimaqilingan variantlarini stilistik tahlil qilish.

33-mavzu. Ibrohim G'ofurov tarjimalarida badiiyligni qayta yaratish masalasi

I. G'ofurov tomonidan qilingan tarjimalarni o'rganib chiqish va vositachi tilning ahamiyatini aniqlash.

34-mavzu. Cho'loning "Kecha va Kunduz" asari tarjimasida o'zbek madaniyatining qayta yaratilishi tahlili

Cho'loning "Kecha va Kunduz" asari tarjimasini taniqli ingliz tarjimoni Kristafor Ford tomonidan ilk marotaba ingliz tiliga o'girildi. Ushbu tarjima asar bilan tanishib, unga tanqidiy baho berish.

35-mavzu. Jahon she'riyatidan o'zbek tiliga tarjimalar

She'riy tarjima bilan shug'ullangan yetuk tarjimonlar Cho'lon, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Mirpo'lat Mirzo kabi shoir tarjimonlar tarjimalari tahlili

36-mavzu. Dinara Sultonova tarjimarida badiiylilikning saqlab qolinishi

D. Sultonova tomonidan amalga oshirilgan aksariyat tarjimalar muvofaqqiyat qozonganligi sir emas. Shuningdek, ushbu tarjimon tomonidan tarjima sohasiga ko'plab yangicha fikrlar kiritilgan.

37-mavzu. Shekspir dramalari tarjimasida tarjimonlar mahorati

Shekspir dramalari bir necha yetuk o'zbek tarjimonlari tomonidan tarjima qilingan variantlarini tahlil qilish.

38-mavzu. Farida Afro'zning "Tasbeh"(Rosary) uchliklardan iborat to'plamiga kiritilgan uchliklar tarjimalarida muallif g'oyasining berilishi

Farida Afro'zning "Tasbeh"(Rosary) uchliklardan iborat to'plamiga kiritilgan uchliklar tarjimalarini leksik tahlil qilish.

39-mavzu. A. Qahhorning "Jinlar bazmi" asari tarjimasining o'ziga xosligi

Hamid Ismailov tomonidan tarjima qilingan A. Qahhorning "Jinlar bazmi" asari o'ziga xoslikda tarjima qilingan asarlardan biridir. Ushbu tarjima ishini stilistik tahlil qilish.

40-mavzu. Tarjima qilingan asarlarda adabiy tanqidning roli

Har bir yozuvchi yoki tarjimon adabiy tanqidni to'g'ri qabul qilishi va undan to'g'ri xulosalar chiqarishi haqida so'z boradi.

41-mavzu. Somerset Moemning "Yomg'ir" asari tarjimasini tahlili

Alisher Otaboyev tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan Somerset Moemning "Yomg'ir" asari tarjimasini qiyosiy tahlil qilish.

42-mavzu. Somerset Moem "Ijodiy Parvoz" Alisher Otaboyev tarjimasini tahlili

Somerset Moemning "Ijodiy Parvoz" asari Alisher Otaboyev tomonidan qilingan tarjimasini badiiy tahlilga tortiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. A'zam Obidov tarjimalariga taqriz
2. Begoyim Holbekova tarjimalariga taqriz
3. Alisher Otaboyev tarjimalariga taqriz
4. Hafiza Allanazarova tarjimalariga taqriz
5. "O'tkan kunlar" asari ruscha, o'zbekcha va inglizcha tarjimalarida milliy mentalitet taqini.
6. Farida Afro'zning "Tasbeh"(Rosary) uchliklardan iborat to'plamiga kiritilgan uchliklar tarjimalarida muallif g'oyasining berilishi.
7. Begoyim Holbekovaning "Qalbin sizga intiladi" (My soul strives for you) o'zbek she'riyatidan tarjimalardan iborat she'rlarda g'oya va mazmunning ingliz tilida berilishi.
8. Gulnoza Odilovaning "Ko'ngil kengliklari" ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga kiritilgan tarjimalar to'plamida tarjima transformatsiyalarining qo'llanishi.
9. "Pearls from ocean" "Ummondan durlar" Alisher Navoiy g'azallaridan tarjimalar to'plamidagi g'azal va ruboiylar tarjimasida ohang va ma'noning berilishi.
10. "Uzbek poetry" O'zbek she'riyatidan tarjimalar kitobiga kiritilgan

tarjimalarning asliyatga adekvatlik darajasi.

11. Mirpo'lat Mirzo mohir tarjimon. Tarjimonning rus tilidan qilgan tarjimalarini to'plab tahlil etish.

12. Erkin Vohidov she'riyatidan tarjimalarda ohang va ritmni qayta yaratish

13. Bolalar adabiyoti tarjimasida uslub muammosi

14. Vilki Kollinzning "Oq kiyingan ayol" romani ingliz tilidan Abduqahhor Iminov tarjimasida badiiylilik.

15. Ibrohim G'afurov tarjimalarida tarjimonning so'z tanlash mahorati.

16. Ibrohim G'afurov tarjimalarida tarjimon va muallif uslubiyati.

17. Navoiy romani tarjimasida adekvatlik muammosi.

18. A'zam obidov tarjimalarida tarjimon va muallif uslubi

19. Tarjimada badiiy tasvirni qayta yaratish

20. Tarjimada inson qiyofasi va fe'l atvorini qayta yaratish muammosi

21. "Navoiy" romani tarjimasida milliy koloritni qayta yaratish

22. Tarjimada olam milliy manzarasini qayta yaratish

23. Ilmiy texnikaviy tarjima muammolari

24. Tarjimada transformatsiyalarni qo'llash

25. Badiiy tarjimada zoonimlarni qayta yaratishning ligvomadaniy muammolari

26. Tarjimada inson qiyofasi tasvirini qayta yaratish

27. Tarjimada inson fe'l-atvorini qayta yaratish

28. Luiz Kerolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asari tarjimasida ertak uslubini qayta yaratish (Ma'mura Otaboyeva tarjimasida misolida)

29. Badiiy tarjimada "taom" konseptini qayta yaratish muammlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Musaev K. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 2005. 158 b.
2. Nancy Matis. How to manage your translation projects/Translation of French book: Comment gerer vos projets de traduction.(c)Edi.pro.2010. 211 pp.
3. Susan Bassnet. Translation studies. 3rd edition. Taylor & Francis e-Library. 2005.188 pp.
4. Baker Mona. Translations Studies. University of Manchester, 2009. 1571 pp.
5. Lance Hewson. An Approach to translation criticism. ETI, University of Geneva, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 28-(6722) soni.
2. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-2909. 20.04.2017. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 79-soni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -32 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston"

- NMIU, 2017. -32 b.
7. Sirojiddinov Sh., G.Odilova. Badiiy tarjima asoslari. Toshkent, 2011. - 164 b.
 8. Lawrence Venuti. The translators Invisibility. London&New York. 2004. 366 pp.

Internet saytlari

1. teneta.rinet.ru/rus/pe/parshin-and_teorii-i-praktika-perevoda.htm
2. <http://www.translator tips.net/tranfreearchive/tf07.html> www. google. ru
3. <http://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:liVGDDOwUwsJ:www.englspace.com/+&cd=1&hl=ru&ct=clnkwww.youeng.narod.ru>
4. http://www.translation.net/languages/english_translation_software.html
5. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=en&u=http://www.translationzone.com/&prev=searchwww.translator tips. Com>
6. <http://www.gbv.de/dms/goettingen/662601432.pdf>
7. https://openlibrary.org/works/OL16360856W/An_approach_to_translation_criticism <http://www.discourses.org/UnpublishedArticles/Ideology%and%20discourse.pdf>
8. <http://www.uv.es/tronch/Tra/NotesOnTranslationCriticism.pdf>